



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

5-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 5 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### **07.00.00- TARIX FANLARI:**

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### **08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:**

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### **09.00.00- FALSAFA FANLARI:**

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### **10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:**

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Qurbanova Marg'uba*

O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY  
OMMALASHTIRISH VOSITALARI ..... 13-15

*Polvanov Azim Kuchkarovich*

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING  
MANBALARDА YORITILISHI ..... 16-21

*Esnazarova Zulfiya Baltashovna*

QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI  
(1873 – 1924) ..... 22-27

*Axmedov Shaxzod Farxon o'g'li*

O'ZBEKİSTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN  
(1991 – 2017-yillar) ..... 28-36

*Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid*

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR  
XODIMLARNING ISHTIROKI ..... 37-43

*Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li*

XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI ..... 44-47

*Asadova Ra'no Baymanovna*

INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM  
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN  
(CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) ..... 48-52

*Esanova Nilufar*

1991-2024 YILLARDA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING SANOAT  
SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR  
(HINDİSTON VA XİTOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) ..... 53-56

*Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li*

O'ZBEK XONLIKLERİ VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON  
O'RТАSIDAGI SIYOSIY ALOQALAR ..... 57-64

*Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li*

HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI  
AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA ..... 65-70

*Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li*

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT  
SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI ..... 71-74

*Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich*

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMİR  
YO'LİNİNG QURILISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI ..... 75-80

*O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li*

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKİSTON SANOATI ..... 81-88

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov</i>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH .....	89-98
<i>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi</i>	
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:	
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?.....	99-104
<i>Xakkulov Akbar Uralovich</i>	
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI .....	105-111
<i>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:	
AVTOKRATIK RAHBARLAR .....	112-117
<i>Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna</i>	
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI	
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI .....	118-125
<i>Yangiboyev Rustam Berdiyarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	126-131
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN	
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK	
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI .....	132-143
<i>Eshqobilova Nigoraxon, Qurbanova Safiyabonu</i>	
DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING	
NAZARIY ASOSLARI .....	144-150
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING	
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI .....	151-159
<i>Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz</i>	
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY	
IN UZBEKISTAN .....	160-172

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Ahmedova Dilrabo</i>	
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY	
JARAYONLARNING TA'SIRI .....	173-177
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING	
FALSAFIY TAHЛИLI .....	178-184
<i>Kurbanaliyev Ural Xatamovich</i>	
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH	
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI .....	185-189
<i>Soipova Mayjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI .....	190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI .....	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI .....	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i>	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI .....	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i>	
O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI .....	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i>	
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR .....	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА .....	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI .....	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI .....	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI .....	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i>	
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI .....	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i>	
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI .....	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i>	
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI .....	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI .....	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI .....	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i>	
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANТИRISH HAQIDAGI QARASHLAR .....	265-271
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i>	
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК .....	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i>	
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS .....	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanova</i>	
A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS .....	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR .....	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI .....	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i>	
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH .....	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i>	
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS .....	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI .....	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i>	
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION .....	332-337
<i>Nazimova Himmatoj</i>	
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI T AHLILI .....	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i>	
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI .....	343-348
<i>Azizova Feruza Rejvaliyevna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI .....	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i>	
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI .....	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i>	
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION .....	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i>	
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA .....	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i>	
BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI .....	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i>	
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	373-376

*Mamadiyorova Hilola*

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI ..... 377-384

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Abdullayeva Nodira Odil qizi*

OILAVIY (MAISHIY ) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI ..... 385-393

*Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li*

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR ..... 394-399

*Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li*

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING  
PREDMETI VA USULLARI ..... 400-407

*Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора*

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ  
ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ ..... 408-413

*Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li*

BURHONUDDIN MARQ'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO  
MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR ..... 414-420

*Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi*

SUN'YI INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):  
MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI ..... 421-432

*Burxonov Shahzod Burxon o'g'li*

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI  
TARTIBGA SOLISH ..... 433-438

*Avezov Umidjon Toshpulatovich*

O'ZBEKİSTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH  
BOSQICHLARI TAHLILI ..... 439-446

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Максудов Улугбек Курбанович*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ  
СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ  
В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ..... 447-453

*Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza*

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 454-458

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

*Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmira*

TALABALARDA TAHLILII FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
ASOSLARI ..... 464-468

*Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich*

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMI LI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS  
FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i>	
GLOBALASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM	
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSALARIDA O'QUVCHILARGA	
AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI .....	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i>	
TEXNOLOGIYA DARSALARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL	
ETISHNING AHAMIYATI .....	491-495
<i>Abdullaeva Dilgora Ulugbekovna</i>	
AKTUAL'NYIE PROBLEMY PREPODABANIIA PRAVOVYX DISCIPLIN	
W TEKHICHESKIH VUZAX .....	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA	
RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR .....	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i>	
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS	
IN PEDAGOGICAL ACTIVITY .....	509-514
<i>Avazova Munisa</i>	
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIIYASINI OSHIRISH:	
GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI .....	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazliddinov Muhammadali</i>	
SUN'YI INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI	
ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH .....	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI	
MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN	
ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV	
METODLARI .....	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART	
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI .....	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI	
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY	
YONDASHUVLAR .....	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI	
SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI( PIRLS)GA	
TAYYORLASH USULLARI .....	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT	
TARBIYASINING O'RNI .....	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI .....	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI .....	563-568

**Received:** 15 April 2025

**Accepted:** 1 May 2025

**Published:** 10 May 2025

*Article / Original Paper*

## **SOCIAL SIGNIFICANCE OF CULTURAL, SCIENTIFIC AND TECHNICAL RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND SOUTH KOREA**

**Usarkulov Oybek**

Teacher

Academic Lyceum of Fergana State University

**Abstract.** The article analyzes the cultural, scientific and technical relations between Uzbekistan and South Korea in the years after independence. The article also highlights the processes of bilateral scientific and cultural cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Korea, issues of cooperation with research institutions and higher education institutions.

**Keywords:** scientific and technical, cooperation, KOICA, nuclear energy, sister city, Seoul, historical, artistic, archaeological institute.

## **O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARING IJTIMOIY AHAMIYATI**

**Usarkulov Oybek**

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi

E-mail: [o.usarkulov@mail.ru](mailto:o.usarkulov@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonning Janubiy Koreya davlati bilan mustaqillikdan keyingi yillardagi madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqlarini tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtaSIDAGI ikki tomonlama ilmiy va madaniy hamkorlik jarayonlari, ilmiy-tadqiqot muassasasi hamda oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-texnikaviy, hamkorlik, KOICA, Atom energetikasi, birodarlashgan shahar, Seul, tarixiy, badiiy, arxeologik institut.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N32>

**Kirish.** Janubiy Koreya O'zbekiston Respublikasini mustaqil davlat sifatida 1992-yil yanvarida tan olib u bilan diplomatik aloqa o'rnatish bilan birga, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan 200 mingdan ortiq koreys vatandoshlari bilan ham aloqa o'rnatish, ular hayoti bilan yaqindan tanishish, ularga har jihatdan yordam berish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1999-yili Toshkentda ochilgan "O'zbekiston-Koreya Respublikasi" do'stlik jamiyatini madaniy aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. Muntazam ravishda festival, ko'rgazma, konsert va boshqa ko'plab madaniy tadbirlar tashkil qilinmoqda. Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo nafosati" foto ko'rgazmasi, "So'gdiyona ansamblining", "Ipak yo'li ruhiyati" konserti, "Ipak yo'li" festivali, har yili Toshkentda bo'ladigan Koreya madaniyati haftaligi shular jumlasidandir. Koreyalik xonanda va sozandalar Samarqandda o'tadigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida doim faol ishtirok etadi.[1] O'zbekiston ko'plab xalqaro madaniy tadbirlarning markaziga aylanmoqda. Bu

tadbirlarda mamlakatlarning madaniyat sohasidagi yutuqlari bilan o'rtoqlashishadi. Madaniyatlar bir-birini boyitib boradi.

1997-yilning avgust oyida Samarqandda "Sharq taronalari" an'anaviy birinchi Xalqaro festivali bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan hakamlar hay'ati 10 kishidan iborat bo'lib, ulardan 7 nafari Yaponiya, Hindiston, Malayziya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va Misrdan edi.[2]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda Janubiy Koreya Respublikasining Maorif Markazi nihoyatda katta ro'l o'ynamoqda. Bu yerda koreyslar, o'zbeklar va boshqa millatga mansub kishilar ham koreys tilini, tarixini va Janubiy Koreya madaniyatini katta qiziqish bilan o'rganmoqda. Markaz qoshida kompyuter kurslari, sport turlaridan taekvondo, koreys xalq raqslari to'garaklari ishlab turibdi.

Samarqandda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalida Janubiy Koreyadan kelgan tanlov dasturi ishtirokchilari Li Jun A va Yu Mi Lilar Koreya xalq qo'shiqlarini mahorat bilan ijro etganliklari uchun YUNECKOning maxsus mukofotiga sazovor bo'ldilar. Ikkinci Samarqand festivalida esa koreyalik qo'shiqchi Yun Kong Su faxrli birinchi mukofotni qo'lga kiritdi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi madaniy aloqalar an'anaviy xalq musiqasi bilan cheklanib qolgani yo'q. Masalan, Toshkentda bo'lib o'tgan Xalqaro Simfonik musiqa festivalida ham janubiy-koreyalik kompozitor Li Kun Bongning asari mutaxassislar tomonidan eng yuqori bahoga loyiq deb topildi. Shunisi e'tiborliki, so'nggi yillar ichida o'zbekistonlik bastakorlar tomonidan koreys xalqi kuylari asosida yangi va original musiqiy asarlar yaratildi. Mazkur asarlar bizning mamlakatimizda va Janubiy Koreyada ham birdek muvaffaqiyat bilan ijro etilmoqda.

Koreya Respublikasida musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va e'tibor bu san'at turining yanada ravnaq topishiga, uni turli xalqaro anjumanlarda namoyish qilish imkonini bermoqda. Masalan 1998-yil sentyabr oyida Toshkentda bo'lgan Xalqaro simfonik musiqa festivalida Janubiy Koreyaning Simfonik musiqa jamoasi qatnashdi.[4] Shuningdek 1994-yilda Janubiy Koreyada ham O'zbekiston madaniyatiga, san'atiga bo'lgan e'tiborni alohida aytib o'tish joiz. O'zbekistonning taniqli, jahonga dong'i ketgan xalq ansamblari Janubiy Koreyada o'z san'atlarini namoyish qilishdi. "S-Es-Ti" firmasi taklifiga binoan "Yalla" vokal -cholg'u ansambl Koreyada o'zbek san'atini namoyish qildi. O'zbekistonning mashhur "Bahor", "Lazgi" raqs ansamblari Koreya xalqiga O'zbekistonning milliy raqs san'atini yuqori saviyada namoyish etdi.[5]

Shuningdek, Janubiy Koreya kino san'atkorlari ham O'zbekistonda an'anaga aylangan va muntazam o'tkazib turilayotgan Xalqaro kinofestivalda doimo ishtirok etib kelmoqdalar. Masalan, 1997-yil may oyida bo'lgan XII Toshkent Xalqaro kinofestivalida Bosh sovrin "Oltin Humo" Janubiy Koreyalik ssenariy muallifi va rejissyor Pak Chul Sunning "Alvido azizam" filmiga berilgan[6].

Shuningdek tarix sohasida ham bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi.

O'zbekiston Janubiy Koreya Respublikasi bilan ham har tomonlama ilmiy -texnik hamkorlik o'rnatgan. Mazkur hamkorlik 1992-yil 17-iyunida imzolangan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim asosida amalga oshirilmoqda. O'sha yilning o'zida O'zbekistonning yadro fizikasi instituti Janubiy Koreya yadroviy tadqiqotlar Markazi bilan ilmiy-texnik hamkorliklar olib borish to'g'risida shartnoma tuzdi. O'zbekiston Respublikasi

Fanlar Akademiyasining Issiqlik fizikasi bo'limi esa Yaponiyaning molekulyar fanlar instituti bilan eng yangi elektr o'tkazuvchi polimerlarning magnit xossalariini o'rganish bo'yicha hamkorlikda tadqiqotlar o'tkazishga kirishildi.[7]

O'zbekiston Yadro fizikasi instituti hamda uning "Radiopreparat" va "Tezlatkich" korxonalari Janubiy Koreya Respublikasi atom tadqiqotlari instituti bilan 1991-1996-yillarga tuzilgan ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi Shartnomaga asosan "Tadqiqot reaktorining neytron bog'lamlaridan qo'llanib materiallarni tadqiq etish va takomillashtirish" mavzusida qo'shma tadqiqotlar olib bormoqdalar. [7]

1995-yilning noyabrida O'zbekistonga Janubiy Koreyadan genetika, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi, urug'chilik va xalq tabobati sohalarining mutaxassislari tashrif buyurdilar. Mazkur tashrif chog'ida urug'chilik, botanika, genetika muammolari bo'yicha qo'shma ilmiy ishlarning o'zaro manfaatli yo'naliishlari belgilab olindi, shuningdek, olimlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatildi.

**Tahlil va natijalar.** O'zFA tarix instituti tashabbusi bilan 2002-yilda Janubiy Koreyalik tarixchi olimlar ishtirokida Toshkentda Markaziy Osiyo tarix ko'zgusida: o'tmishtdan kelajakka, 2003-yili esa, Markaziy Osiyo:sivilizatsiyalashgan taraqqiyot yo'llari mavzularida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. Mazkur institut xodimlari Janubiy Koreyalik hamkasblari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda mazkur mamlakatdan bir qancha yetuk olimlar o'zaro tajriba almashish maqsadida Tarix institutida bo'lgan bo'lsalar, o'z navbatida yirik olimlardan biri V.Xan Janubiy Koreyada 2003-yilda o'tkazilgan xalqaro anjumanda o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi. Mazkur institut huzuridagi Ixtisoslashgan Kengashda Janubiy Koreya lik yosh tadqiqotchilar Sun Don Gi hamda Seng Yong Chellalar Tarix institutining tarix fani bo'yicha nomzodlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qildilar. Ayni paytda ,institut olimlari Janubiy Koreyaning Osiyo rivojlanish va madaniyat instituti bilan 2001-yilda tuzilgan shartnoma asosida hamkorlikda ko'pgina yo'naliishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. [8]

O'z FA Yadro fizikasi instituti Yensey universiteti hamda Janubiy Koreyaning Atom energetikasi instituti bilan birligida 1999-yilning dekabrida 2000-yilning mart oyida uchta ilmiy seminar o'tkazilgan. Ular quyidagi muammolarga bag'ishlandi: "Qattiq jinsli trekli detektorlardan analitik maqsadlardan foydalanish", "Biologik namunalarda bor va uranni aniqlash", "Trekli avtodiografiya obyektlarining atrof-muhitini tahlil qilish". Ayni shu institut tomonidan 2000-yilning mart-iyul oylarida koreyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda yuqori ishlanmadagi kukunli difraktolitrda qo'llanuvchi qotishmalarning kristall strukturalari va fazali o'zgarishlari tadqiq etildi.[9]

Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy ,madaniy,ilmiy-texnikaviy aloqalarni yo'lga qo'yishda va rivojlantirishda Janubiy Koreyaning KOICA (Xalqaro munosabatlar bo'yicha Koreya agentligi) xalqaro tashkilotining roli slamtqidir. Agentlik (KOICA) 1991-yil aprel oyida tashkil qilingan bo'lib, Koreya Respublikasi tashqi ishlar vazirligi tasarrufiga kiritilgan.

Agentlikning faoliyat doirasida geografik jihatdan Osiyo, Lotin Amerikasi,Afrika qit'alarini, shu jumladan, Mustaqil davlatlar hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar qamrab olingan.

O'zbekistonda ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyaning Texnika hamkorlik tashkiloti,Yaponiyadagi JAIKA-Xalqaro hamkorlik agentligi, Koreyaning KOICA-Xalqaro hamkorlik agentligi, UNESCO, Jahon banki, TASIS-TEMPUS ochiq jamiyat

instituti, AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Daniya Gollandiya Oliy ta'lif vazirliklari bilan hamkorlik kengayib bormoqda. [10]

Janubiy Koreyaning yordami bilan Jahon tillari universitetida koreys tili markazi tashkil etilgan. Samarqand chet tillari institutida esa koreys tili va adabiyoti markazi faoliyat yuritmoqda. Janubiy Koreya Respublikasi elchixonasi ushbu markazlarni video va audio darslar, yangi adabiyotlar bilan ta'minlashga yaqindan yordam ko'rsatmoqda. Janubiy Koreyaning Osiyo madaniyati va taraqqiyoti institutining ko'magi bilan Samarqand chet tillari institutida kompyuter markazi tashkil qilindi.

Ta'kidlash kerakki, janubiy koreyalik kadrlarning bilim olishida O'zbekiston ham o'z hissasini qo'shmoqda. 2000-2005-yillar oralig'ida O'zbekistonda 30 ga yaqin koreyalik talaba va aspirantlar tahsil olgan.

2000-yilda O'zbekistondagi o'n ikkita oliy o'quv yurtining (Toshkent, Namangan, Nukus, Samarqand, Farg'ona, Guliston) o'n besh nafar talabasi Janubiy Koreyaning xorijiy vatandoshlar jamg'armasi tomonidan ta'sis etilgan stipendiyaga sazovor bo'ldi. Ushbu stipendiyaning miqdori oyiga 50 AQSH dollarini tashkil etgan.

2002-yilning yanvar oyida Buxoro tibbiyot institutining bir guruhi o'qituvchi va talabalariga Janubiy Koreyaning Madaniyat va Taraqqiyot Osiyo instituti (MTOI) Ning maxsus stipendiyasi topshirildi. Ushbu stipendiyalar Osiyoning meditsina oliy o'quv yurtlaridagi eng yaxshi ilmiy ish sohiblariga va a'lochi o'quvchilariga berildi. Buxoro tibbiyot instituti bir necha yillardan buyon Janubiy Koreyaning ushbu instituti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ular orasida o'zaro o'qituvchilar va talabalar bilan almashinish ham yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rta-sidagi hamkorlikning yanada mustahkamlanishida 2002-yilning dekabrida Asana shahrida bo'lib o'tgan Osiyo va Tinch okeani mintaqasi Oliy o'quv yurtlari rektorlari Federatsiyasining kengashi yangi bir bosqich bo'ldi. Bunda O'zbekiston delegatsiyasi ilk bor ishtirok qildi. O'zbekiston Oliy o'quv yurtlari rektorlari ham mazkur Federatsiyaga a'zo sifatida qabul qilindi. Ushbu kengashning eng muhim jihatni shunda bo'ldiki, unda O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan Koreya Respublikasi Senmun universiteti o'rta-sida Sharhnomalar imzolandi. Ushbu sharhnomaga asosan, bundan keyin har yili O'zbekistonning barcha oliy o'quv yurtlaridan bir nafardan talaba Janubiy Koreyaning eng nufuzli universitetlaridan birida ikki oylik stajirovkada bo'lib qaytishi mumkin. Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutidan esa 3 nafar talaba ana shunday shaharga muvaffaq bo'ldi.

Shuni ham ta'kidlash joizki hozirgi kunda koreys tilini o'rganayotgan talaba yoshlar oliy o'quv yurtini bitirgach, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rta-sidagi turli aloqalar zamirida muhim rol o'ynashi mumkin, bu esa ikki davlat o'rta-sidagi do'stlikni mustahkamlashga yordam beradi. Janubiy Koreya va O'zbekiston tarixini, madaniyatini va iqtisodini yaxshi biladigan diplomli mutaxassislar faqat do'stlikni va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi tabiiydir.

Binobarin Janubiy Koreyaning ikkita institutida esa o'zbek tili o'rgatilmoqda. Bu Pusan chet tillari institutida va Xo-Se institutida O'zbekiston haqida maxsus kurs o'qitiladi. Jumladan Pusan chet tillari institutining Markaziy Osiyo bo'limida 1995-yildan boshlab o'zbek tili o'qitiladi. Xo-Se institutida esa maxsus o'zbek tili kafedrasi tashkil qilingan. Lekin, bu institutlarda oliy malakali O'zbekistonni yaxshi biladigan mutaxassislar yetishmaydi. Bu sohada O'zbekiston hukumati katta yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2017-yil 22-24-noyabr kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Seul shahrining faxriy fuqarosi unvonini berishga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 2017-yil 3-iyul kuni Seul shahri meri Pak Von Sunni Toshkentda qabul qilib, birodarlashgan shaharlar – Toshkent va Seul o'rtaida amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilgan edi

2017-yilning 24-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In hamrohligida Seul shahridagi Janubiy Koreya Milliy muzeyiga tashrif buyurdi. Mazkur muzey Koreya Respublikasining eng yirik tarixiy va madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. 1945-yil asos solingan muzey uchun 2005-yil o'ziga xos me'moriy yechimga ega zamonaviy bino barpo etilgan. Osiyoda eng yirik, deya e'tirof etiladigan ushbu muzey ko'lami jihatidan dunyoda oltinchi o'rinda turadi. Muzeyda 220 mingdan ortiq tarixiy, badiiy, arxeologik va boshqa eksponatlar to'plangan. Prezidentimiz muzey eksponatlari bilan tanishdi. Madaniy-gumanitar sohalarda davlatlarimiz o'rtaсидаги aloqalarni yanada kengaytirish yuzasidan kelishib olindi.[11]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In 2019-yil 18-aprel kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Tashrif chog'ida Koreya Respublikasi 2018-yilda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" hamda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyalarini qo'llab-quvvatladi.

2017-yili O'zbekistonda koreys millati vakillari yashayotganining 80 yilligi munosabati bilan poytaxtimizdagi "Do'stlik" bog'ida yodgorlik monumenti ochildi. Poytaxtimizning markaziy ko'chalaridan biriga Seul nomi berildi. Koreys xalqining ma'naviy-madaniy merosini saqlash va rivojlantirish maqsadida Koreya Respublikasi hukumati tomonidan Toshkent shahrida Koreya madaniyati uyi qurib bitkazildi. Ushbu maskan xalqlarimiz abadiy do'stligining yana bir yorqin timsoli bo'ladi.

**Xulosa.** Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari Janubiy Koreyadagi 45 dan ortiq ilmiytadqiqot muassasasi bilan hamkorlik o'rnatgan. Poytaxtimizda Koreya Respublikasining to'rtta universiteti filiali ochilgan. Shuningdek Farg'ona shahrida O'zbekiston – Koreya Xalqaro Universiteti o'z faoliyatini olib bormoqda.

Shunday qilib, koreys va o'zbek xalqi ma'naviy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganligi ular o'rtaсидаги umumiyoq aloqalarni davlatlar darajasida ,tadbirkorlik o'rtaсидада va ikki xalq miqyosida to'g'ri va istiqbolli yo'lga solinishiga yordam berdi. va o'zining mustahkam zaminiga ega bo'ldi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Халқ сўзи // 1997 йил 4 сентябр.
2. Тошкент оқшоми // 1998 йил 5 сентябр.
3. Халқ сўзи // 1994 йил 28 май
4. Халқ сўзи // 1997 йил 4 сентябр

5. Киргизбаев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги // докторлик илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияю - Т.: 2004. - Б -245.
6. Normatova D. E. The Emergence of Philosophy in Ancient Society //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 478-483.
7. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. -Т.: O'qituvchi, 2012. -B-222
8. Normatova D. E. Attitudes Towards Moral Heritage In The History Of Central Asia //Oriental Journal Of Social Sciences. – 2021. – С. 11-16.
9. Киргизбаев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги // докторлик илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияю - Т.: 2004. -Б. 293.
10. Халқ сўзи // 2002 йил 30 январ.
11. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi qoshidagi diplomatik korpusga xizmat ko'rsatish byurosi saytidan. 29 noyabr 2017-yil.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 5 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).